




ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>



THE ACTIVITIES OF THE INTERNAL AFFAIRS BODIES OF UZBEKISTAN IN THE EARLY YEARS OF INDEPENDENCE

Bahodir Tojiyev

Researcher at Karshi State Technical University
Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Uzbekistan, independence, internal affairs bodies, law and order, reforms, security, social stability, rule of law, personnel training, legal reforms, internal affairs system.

Received: 04.08.25

Accepted: 04.08.25

Published: 04.08.25

Abstract: This scientific article analyzes the fundamental changes and development trends in the activities of the internal affairs bodies in the first years of the independence of the Republic of Uzbekistan. The work highlights the responsible tasks assigned to the internal affairs bodies in the country after independence in order to form a law and order system, ensure national security, strengthen social stability and the rule of law in society. It also comprehensively analyzes the reforms implemented in the field of internal affairs, the creation of a regulatory and legal framework, and the measures taken to train qualified personnel.

MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA O'ZBEKISTON ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATI

Bahodir Tojiyev

Qarshi davlat texnika universiteti tadqiqotchisi
Qarshi, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: O'zbekiston, mustaqillik, ichki ishlari organlari, huquq-tartibot, islohotlar, xavfsizlik, ijtimoiy barqarorlik, qonun ustuvorligi, kadrlar tayyorlash, huquqiy islohotlar, ichki ishlari tizimi.

Annatatsiya: Mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishgan dastlabki yillarida ichki ishlari organlari faoliyatining tubdan o'zgarishi va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Asarda mustaqillikdan so'ng mamlakatda huquq-tartibot tizimining shakllanishi, milliy xavfsizlikni ta'minlash, jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va qonun ustuvorligini mustahkamlash yo'lida ichki ishlari organlari zimmasiga yuklangan mas'uliyatli vazifalar yoritiladi. Shuningdek, ichki ishlari sohasida

amalga oshirilgan islohotlar, me'yoriy-huquqiy bazaning yaratilishi va malakali kadrlar tayyorlash borasida ko'rيلган chora-tadbirlar keng tahlil qilinadi.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ УЗБЕКИСТАНА В ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Баходир Тожиев

Исследователь Кашиинского государственного технического университета
Карии, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Узбекистан, независимость, органы внутренних дел, правопорядок, реформы, безопасность, социальная стабильность, законность, подготовка кадров, правовые реформы, система внутренних дел.

Аннотация: В данной научной статье анализируются коренные изменения и тенденции развития деятельности органов внутренних дел в первые годы независимости Республики Узбекистан. В работе освещаются ответственные задачи, возложенные на органы внутренних дел в стране после обретения независимости в целях формирования системы правопорядка, обеспечения национальной безопасности, укрепления социальной стабильности и законности в обществе. Также всесторонне анализируются проводимые в сфере внутренних дел реформы, создание нормативно-правовой базы и принимаемые меры по подготовке квалифицированных кадров.

Kirish. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq O'zbekiston Respublikasida ichki ishlar organlari tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan muhim tashabbuslar amalga oshirila boshlandi. Jumladan, 1991 yil 25 oktyabrdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "O'zbekiston SSR Ichki ishlar vazirligini O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga aylantirish to'g'risida"gi qaror qabul qilindi [1]. Mazkur hujjat orqali yangi davlat mustaqilligi sharoitida ichki ishlar tizimini milliy manfaatlarga mos holda qayta tashkil etish va rivojlantirish uchun huquqiy va tashkiliy asoslar yaratildi. Qaror asosida Ichki ishlar vazirligi to'g'risida nizom ishlab chiqilib, unda vazirlikning asosiy vazifalari, huquqiy doirasi, tashkiliy tuzilmasi, markaziy apparatining tarkibi hamda faoliyatni samarali tashkil etish mexanizmlari aniq belgilab berildi.

Alovida ta'kidlash lozimki, mustaqillikning ilk davrlarida O'zbekiston Respublikasida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning mustaqil va mukammal qonuniy asoslari hali to'liq shakllanmagan edi. Jumladan, Bojxona, Chegara qo'shinlari, Prokuratura, Mudofaa, Sud, Milliy xavfsizlik, Milliy gvardiya kabi idoralar faoliyatini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy

hujjatlar hali ishlab chiqilmagan edi. Natijada, mazkur muhim sohalarga doir bir qator funksiyalar vaqtincha ichki ishlar organlari (militsiya) zimmasiga yuklatildi. Xususan, davlat chegaralarini himoya qilish, milliy xavfsizlik va jamoat tartibini ta'minlash vazifalari ichki ishlar xodimlari zimmasiga topshirildi.

Asosiy qism. Shuni ham alohida qayd etish joizki, 1990-yillarning boshlarida ichki ishlar organlari faoliyati doirasida milliy kadrlardan iborat professional tarkibni shakllantirish, huquqiy bazani mustahkamlash va zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy etish bo'yicha ham keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Ichki ishlar organlari davlat suvereniteti va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda asosiy tayanch idoralardan biriga aylandi.

Qisqa vaqt ichida ichki ishlar tizimining faoliyat ko'rsatkichlari va huquqiy asoslari mustahkamlanib, yangi bosqichga ko'tarildi. Shu tariqa, mustaqillikning dastlabki yillarda O'zbekiston ichki ishlar organlarining faoliyati mamlakat mustaqilligi, barqarorligi va xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

1992 yil 8 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining qabul qilinishi mamlakat huquq-tartibot tizimini, jumladan, ichki ishlar organlari faoliyatini huquqiy jihatdan yanada mustahkamlashda muhim tarixiy bosqich bo'ldi. Konstitutsiyaning 13-moddasida qayd etilganidek: "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Ularni ta'minlash esa boshqa davlat organlari, muassasalari va tashkilotlari qatorida ichki ishlar organlarining ham asosiy vazifasidir"[2]. Mazkur normalar orqali ichki ishlar organlarining fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash va himoya qilish borasidagi konstitutsiyaviy majburiyatlari aniq belgilab berildi.

Davlat mustaqilligining dastlabki yillarda mamlakat ijtimoiy hayotida mavjud bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy muammolarga, murakkab o'tish davri sharoitiga qaramasdan, ichki ishlar organlari jinoyatchilikka qarshi kurashda muhim natijalarga erishdi. 1993 yilda, ya'ni mustaqillikdan so'ng qisqa vaqt o'tib, O'zbekistonda oxirgi olti yil ichida ilk bor jinoyatchilikning o'sish tendensiyasi to'xtatildi hamda uning umumiyligi miqdori 1992 yilga nisbatan 3,9% ga qisqardi. Mazkur davrda voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilik 8,8% ga, og'ir turdag'i jinoyatlar jumlasidan qotillik 0,6% ga, badanga og'ir shikast yetkazish holatlari 6% ga, bosqinchilik 16% ga, talonchilik 18% ga, davlat va jamoat mulkini o'g'irlash 35,4% ga, shaxsiy mulkni o'g'irlash esa 14,4% ga kamaydi [3, B.43]. Bu ko'rsatkichlar, bir tomonidan, ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshirilgan tizimli islohotlar va faoliyat samaradorligi natijasi bo'lsa, boshqa tomonidan, aholining huquqiy madaniyati va jamoatchilik faolligi ortib borayotganini ham aks ettiradi.

Shuningdek, ichki ishlar organlari faoliyatining konstitutsiyaviy asoslar bilan mustahkamlanishi ushbu tuzilmaning mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish, jamoat xavfsizligi va ijtimoiy barqarorlikni saqlashdagi o'rni va ahamiyatini yanada kuchaytirdi. Bu esa, O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida muhim qadam bo'ldi.

1993 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risida"gi Qarorining imzolanishi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ichki ishlar organlarida xizmat o'tash tartibi haqidagi vaqtinchalik Nizom"ni tasdiqlashi mamlakat huquq-tartibot tizimida muhim burilish nuqtasi bo'ldi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar jamoat tartibini ta'minlash va jinoyatchilikka, ayniqsa, uyushgan va kasbiy jinoyatlarga qarshi kurashishda yangi bosqichni boshlab berdi. Xususan, vaqtinchalik Nizomda ichki ishlar organlarida oddiy va rahbar xodimlar tarkibi, ularning xizmat o'tash tartibi, majburiyat va huquqlari aniq belgilab qo'yildi, shuningdek, jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha maxsus boshqarma tuzildi [4].

Shu bilan birga, o'tish davri sharoitida uyushgan jinoyatchilik va kasbiy jinoyatlar darajasining oshishi kuzatildi. 1993 yilda muqaddam sudlangan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni 1992 yilga nisbatan 20% ga ko'paygani aniqlangan [5]. Ushbu salbiy tendensiyaning sabablari chuqur tahlil qilinar ekan, jumladan, sobiq Ittifoq davrida jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan va amnistiya asosida erkinlikka chiqqan shaxslarning jamiyatga moslashishda duch kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolari muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Ko'plab mahkumlar yashash joyiga qaytgach, to'laqonli ijtimoiy integratsiya qilinmagan, natijada ular jamiyatning eng quyi qatlamlaridan joy olib, takroran jinoyat sodir etishga moyil bo'lganlar [6].

Bunday vaziyatda ichki ishlar organlari zimmasiga nafaqat jinoyat sodir etilishining oldini olish va ochish, balki qayta ijtimoiylashuv va rehabilitatsiya jarayonlarini ham tashkil etish, jinoyatchilik ildizlarini chuqur tahlil qilib, kompleks yondashuv asosida chora-tadbirlar ishlab chiqish vazifasi yuklatildi. Mazkur davrda huquq-tartibot organlari faoliyatini zamонавиylashtirish, xizmat intizomi va kasbiy etikani mustahkamlash, xodimlarni malakali tayyorlash hamda aholi bilan bevosita hamkorlikni kuchaytirish borasida ham muhim tashabbuslar ilgari surildi.

1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan "Jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar organlarining ma'muriy nazorati to'g'risida"gi Qonun mustaqillikdan keyingi davrda O'zbekistonda huquq-tartibot va profilaktika ishlarini takomillashtirish yo'lidagi muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qildi. Mazkur Qonunda ijtimoiy himoyaga muhtoj, jazoni o'tab qaytgan shaxslar tomonidan takror jinoyat sodir etilishining oldini olish, ularning ijtimoiy hayotga

qayta integratsiyalashuvini ta'minlash maqsadida ma'muriy nazoratning tartib-taomillari, asoslari va cheklovleri aniq belgilab berildi. Shu bilan birga, ma'muriy nazorat ostiga olingan shaxslarning huquq va majburiyatlar, ichki ishlar organlari xodimlarining ushbu sohadagi vakolat va majburiyatlar ham huquqiy jihatdan mustahkamlandi[7].

Mustaqillikning dastlabki yillarda amalga oshirilgan kompleks chora-tadbirlar natijasida respublikada jinoyatchilik darajasi bosqichma-bosqich kamayib bordi. Jumladan, 1994 yilda sodir etilgan jinoyatlar umumiyligi soni 1993 yilga nisbatan 18,3% ga qisqargan bo'lsa, ularning og'ir turlari – badanga og'ir shikast yetkazish 7,3% ga, bosqinchilik 22,6% ga, talonchilik 11,5% ga, o'g'rilik esa 19,6% ga kamaygan. Mazkur ijobiy dinamika ichki ishlar organlarining huquqiy, tashkiliy va operativ salohiyati oshgani, aholi va jamoat tuzilmalari bilan hamkorlik mustahkamlangani, jinoyatchilikka qarshi kurashning samarali strategiyalari ishlab chiqilganidan dalolat beradi.

Shuningdek, 1995 yildan boshlab ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat kiyimlari va atributikasida milliy ajratuvchi belgilar joriy etildi. Dastlab, avvalgi sovet davri pogonlaridagi besh qirrali yulduz o'rniga O'zbekiston ramzi sifatida maxsus sakkiz qirrali "musamman" yulduzi tasdiqlandi. Shuningdek, kitel yoqasidagi petlitsalar bekor qilinib, o'rniga davlat gerbi ramzi ifodalangan belgi taqiladigan bo'ldi[8]. Bu o'zgarishlar ichki ishlar tizimining milliy o'ziga xosligini namoyon etish, xodimlarda davlat ramzlariga hurmat va vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirishga xizmat qildi.

Aholining, xalq xo'jaligi obyektlarining va strategik ahamiyatga ega yuklarning ishonchli muhofazasini, jumladan, yong'in xavfsizligi, temir yo'l transportida mahsulotlar va boshqa qimmathi yuklarning saqlanishini ta'minlash maqsadida ham qator huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlar ko'rildi. Xususan, 1996 yil 4 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlarini mustahkamlash to'g'risida"gi 378-sonli qarori qabul qilindi[9]. Ushbu qaror orqali ichki ishlar organlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, malakali kadrlar tayyorlash, zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish, xizmat intizomi va professional faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha keng ko'lamlili islohotlar boshlab yuborildi.

1999 yil 12 aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash konsepsiysi to'g'risida"gi qarori qabul qilinishi poytaxtda huquq-tartibot va xavfsizlik sohasini tubdan isloh qilish yo'lidagi muhim bosqich bo'ldi[10]. Ushbu normativ-huquqiy hujjat Toshkent shahrida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash faoliyatining eng dolzarb va ko'p sonli aholi qatlamlari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqada faoliyat yurituvchi ichki ishlar organlari tizimida keng qamrovli islohotlarning boshlanishiga asos bo'ldi. Mazkur Konsepsiya doirasida ichki ishlar organlarining xizmat

faoliyati, huquqiy va tashkiliy mexanizmlari, resurslar va kadrlar salohiyati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish kabi yo‘nalishlar bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu esa, Toshkent shahrida jamoat xavfsizligini zamonaviy talablarga mos tashkil etishda asosiy omil sifatida namoyon bo‘ldi.

Shuningdek, 1999 yil 14 dekabrda qabul qilingan “Shaxsning hayotiga qarshi qaratilgan jinoyatlarga nisbatan jazoni kuchaytirish to‘g‘risida”gi qaror va Respublika Prezidentining 1999 yil 26 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasi pasport tizimini takomillashtirish haqida”gi Farmoni bilan yangi tahrirdagi “O‘zbekiston Respublikasida pasport tizimi to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlandi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlarda O‘zbekiston fuqarolariga pasport berish, ularni qayd qilish va ro‘yxatga olish, shuningdek, pasport tizimi qoidalarini buzganlik uchun ma’muriy va jinoiy javobgarlik mexanizmlari aniq belgilab berildi. Bu esa, ichki ishlar organlari faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlash va aholining migratsion jarayonlarini samarali boshqarishda muhim qadam bo‘ldi.

Mazkur davrda, shuningdek, ichki ishlar organlari faoliyatining dolzarb yo‘nalishlarini huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan qator qonun hujjatlari ham qabul qilindi. Jumladan, 1998 yil 1 mayda qabul qilingan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun hamda 2000 yil 15 dekabrda yangi tahrirda tasdiqlangan “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonun ichki ishlar organlarining terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurash, fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va bu boradagi huquqiy tartibotni mustahkamlashdagi rolini belgilab berdi [11]. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar ichki ishlar organlarining xavfsizlik sohasidagi vakolat va mas’uliyat doirasini yanada kengaytirdi, terrorizm va diniy ekstremizmning ildiz sabablari, ularni yuzaga keltiruvchi omillar va tahdidlarni bartaraf etishning samarali tizimini shakllantirishga zamin yaratdi.

2001 yil 27 martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan respublika ichki ishlar tizimining faoliyatini modernizatsiya qilish, xizmat faoliyatining samaradorligini oshirish, zamonaviy boshqaruv va axborot texnologiyalarini joriy etish borasida yangi bosqich boshlandi [12]. Mazkur Farmonga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ichki ishlar organlarining bir qator xizmatlari faoliyatini tubdan isloq qilishga qaratilgan qarorlar qabul qilindi. Xususan, ichki ishlar organlarining ijtimoiy himoya va profilaktika tizimi, jinoyatchilikka qarshi kurash, xavfsizlikni ta’minlash, kadrlar salohiyatini oshirish hamda jamiyat bilan hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi.

2001 yil 4 avgustda Ichki ishlar vazirligi tomonidan shaxsiy tarkib uchun yangi namunadagi kiyim-bosh (forma) joriy etilishi haqidagi farmoyish qabul qilindi. Ushbu normativ-huquqiy hujjat asosida ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat liboslari tubdan yangilandi va

zamonaviylashtirildi. Yangi uniformaning joriy etilishi nafaqat tashqi ko‘rinish, balki funksional qulaylik, zamonaviy dizayn va xalqaro standartlarga moslik jihatidan ham muhim o‘zgarishlarni o‘z ichiga oldi. Jumladan, ilgari mavjud bo‘lgan shinel, kitel, galife shim, etik, portupeya, furajka va boshqa an’anaviy elementlar o‘rnini yengil, ixcham va amaliy kurtkalar, yenglari kalta yozgi ko‘ylaklar, yon tomonlariga enli qizil lenta tikilgan shimplar, hamda Yevropa davlatlari politsiyasi bosh kiyimini eslatuvchi yozgi va qishki shapkalar egalladi. Bundan tashqari, xodimlarning xizmat kiyimlarida yangi pogonlar, shuningdek, shapkalar va ustki kiyimlarning yenglariga taqiladigan shevronlar paydo bo‘ldi [13]. Bu o‘zgarishlar ichki ishlar organlari xodimlarining milliy o‘ziga xosligini va xizmat intizomini kuchaytirishga, ularning jamoat oldidagi obro‘sini oshirishga xizmat qildi.

2004 yil 19 iyulda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmon ichki ishlar organlari faoliyatida islohotlarni yangi bosqichga olib chiqdi va tizimda zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy etishga asos bo‘ldi. Xususan, Farmonda asosiy e’tibor jamoat tartibini saqlash, huquqbazarliklarning oldini olish, tergov va operativ-qidiruv tadbirlarini olib borishda eng ilg‘or shakl, usul va vositalardan foydalanishga, jinoyatlar va huquqbazarliklarni aniqlash, ularning oldini olish va bartaraf etishda mobil, moslashuvchan va yuqori professional tizimni shakllantirishga qaratildi [14]. Natijada, ichki ishlar organlari faoliyatining barcha yo‘nalishlarida malaka va salohiyat oshirildi, huquqni muhofaza qilish sohasida zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanila boshlandi, ichki ishlar xodimlarining xizmat intizomi va javobgarlik darajasi kuchaytirildi.

Umuman olganda, O‘zbekiston Respublikasining istiqlol yillarda ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirish, uning jamiyat hayotidagi o‘rnini oshirish va davlat xavfsizligini ta’minalash yo‘lida qator muhim huquqiy, tashkiliy va institutsional islohotlar izchil amalga oshirildi. Tizimda qabul qilingan yangi normativ-huquqiy hujjatlar va ilg‘or boshqaruv amaliyotlari asosida, ichki ishlar organlari bugungi kunda ham jamoat tartibi va huquq-tartibotni ishonchli ta’minalash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda muhim rol o‘ynab keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to‘plami, 1991 y., №10. 36-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2019.
3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2019.
4. O‘z MA, M-37-fond, 1-ro‘yxat, 14-ish, 44-varaq.
5. O‘z MA, M-37-fond, 1-ro‘yxat, 155-ish, 216-varaq.

6. Кристи Нильс. Борба с преступностью как индустрия. Вперед, к Гулагу западного образца. – М.: РОО “Центр содействия реформе уголовного правосудия”, 2001. – С.74 – 75.
7. O‘z MA, M-69-fond, 2-ro‘yxat, 11-ish, 12-varaq.
8. Tojiyev K. Davlat yo‘l harakati xavfsizlik xizmati mustaqillik yillarda (1991 – 2011). – Urganch, 2011. 18-bet.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlar to‘plami. – Т., 1996. 11-son. – №378.
10. Babakalanov Z.Y. Demokratlashtirish va sud-huquq tizimini isloh etish sharoitida ichki ishlar organlari faoliyatini huquqiy ta’minalashni takomillashtirish // O‘zbekiston Respublikayei IIV Akademiyasining axborotnomasi, 2011 yil 1-son. 31 – 32betlar.
11. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. – Т., 2001. – №1-2, 15-modda.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 27 martdagи “Ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // “Xalq so‘zi” 2001 yil 28 mart.
13. Ikramov Sh.T., Qobilov SH.R Mustaqillik, barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlash oson kechgan emas. O‘quv qo‘llanma. – Т.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013. – 192 b.
14. Sattorov A. Ichki ishlar organlari tizimidagi islohotlarning samarasi // O‘zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini liberallashtirishning asosiy yo‘nalishlari: Halqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2007 yil 12 dekabr). – Т.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2007. 48-bet.